



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA  
VA MAKTAB  
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston  
Milliy Pedagogika  
Universiteti



No5(4)  
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

# M

# AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 322 sahifa,  
18-may, 2026-yil.

## **BOSH MUHARRIR:**

Karimova E'zoza Gapijanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

## **BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:**

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

## **TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI**

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik  
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik  
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor  
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor  
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)  
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)  
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)  
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)  
Wookyuu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)  
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)  
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent  
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor  
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor  
Doniyorov S. M. – “Yangi O'zbekiston” va “Pravda Vostoka” gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)  
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent  
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent  
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent  
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti  
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor  
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)  
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent  
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent  
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori  
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari  
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

**Muassis:** “Tadbirkor va ishbilarmon” MChJ

**Hamkorlarimiz:** O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

#### **EDITOR-IN-CHIEF:**

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

#### **DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:**

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

#### **EDITORIAL BOARD MEMBERS:**

**Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician**

**Shoumarov G. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician**

**Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor**

**Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor**

**Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor**

**Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor**

**Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor**

**Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)**

**Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)**

**Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)**

**Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)**

**Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)**

**Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)**

**Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor**

**Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor**

**Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor**

**Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)**

**Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor**

**Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor**

**Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor**

**Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor**

**Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service**

**Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor**

**Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)**

**Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor**

**Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor**

**Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor**

**Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics**

**Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor**

**Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region**

**Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun**

**Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences**

**Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor**

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”  
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti  
Administratsiyasi huzuridagi Axborot  
va ommaviy kommunikatsiyalar  
agentligi tomonidan **№C-5669363**  
reyestr raqami tartibi bo'yicha  
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**



# MUNDARIJA

O'quvchi yoshlarni muhandislik kasblariga yo'naltirishda xorij tajribasi.....	10
<a href="#">Maxamov X. T., Omondavlatova Sofiya Baxtiyor qizi</a>	
2-sinf darslarida "4K" ko'nikmalarini shakllantirish: XXI asr savodxonligi poydevori .....	14
<a href="#">Jo'rayeva Nargiza O'ktamovna</a>	
Ommaviy axborot vositalarining inson ruhiy salomatligiga ta'siri: empirik tadqiqot natijalari.....	18
<a href="#">Abdinazarova Bibixonim Rashid qizi</a>	
Talabalar uchun amaliy ko'nikmalarni shakllantirishda texnik loyihalarning o'rni .....	23
<a href="#">Axmadaliyev Mansurbek Erkaboy o'g'li, Rejabov Jaloliddin Sadiq o'g'li</a>	
Masalalarni modellashtirish metodi yordamida yechish yo'llari .....	28
<a href="#">B. B. Qarshiyev, Bekmuradov Bobur Toyloq o'g'li</a>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotida elektron o'quv materiallaridan foydalanishning afzalliklari.....	34
<a href="#">Tog'aymurodova Marjona Yusuf qizi</a>	
Raqamli ta'lim muhitida dizaynerlik faoliyatlarini rivojlantirishning zamonaviy metodlari.....	39
<a href="#">Satvoldiyeva Malaxatxon A'zamjanovna</a>	
Metall va metallmas buyumlarga ishlov berish texnologiyasi fanidan amaliy dars mashg'ulotlarini raqamli texnologiyalar asosida o'qitish metodikasi .....	47
<a href="#">A. Safarov</a>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida tanqidiy fikrlashni shakllantirish mezonlari.....	57
<a href="#">Xolmatov Doston Dilshod o'g'li</a>	
7–8-sinf biologiya darslarida kompetensiyaviy yondashuvni takomillashtirish metodikasi .....	60
<a href="#">Xolmurodova Sarvinoz</a>	
Zamonaviy adabiyotda lider ayol portreti va shaxsiy rivojlanish falsafasi.....	64
<a href="#">G'afforova Dildora Ergashevna</a>	
Boshlang'ich sinf o'qish darslarida matn ustida ishlash metodikasini takomillashtirishning pedagogik asoslari.....	69
<a href="#">Yusupova Umida Zayniddin qizi</a>	
Umumta'lim maktabida xalq hunarmandchiligi va badiiy loyihalashda kreativ yondashish texnologiyalarining mazmun-mohiyati.....	74
<a href="#">Shomirzayev Maxmatmurod Xuramovich, G'aniyeva Dilfuza A'lam qizi</a>	
Oila muhitining raqamli tadbirkorlik motivatsiyasiga ta'siri: psixologik tahlil .....	78
<a href="#">Tursunov Lutfulla Sayfullayevich, Boyqobilova Sevinch Fazliddin qizi</a>	
Maktab va muzeylar aloqadorligini ta'minlash asosida o'quvchilarni ma'naviy merosga hurmat ruhida tayyorlashning pedagogik texnologiyasi .....	81
<a href="#">Nizomxonova Nargizaposhsho Ekrixon qizi</a>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida produktiv o'qish malakasini shakllantirish.....	86
<a href="#">Xurramova Sojida Abdunazar qizi</a>	
Oliy ta'lim tizimida liderlik kompetensiyalarini takomillashtirishning kompleks yondashuvlari.....	91
<a href="#">Risvayeva Charos Zaydilla qizi</a>	
Sport sohasining ommaviyligi va inklyuzivligi .....	94
<a href="#">Z. N. Urunova, M. Jaborova</a>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida psixologik muhitni swot-tahlil qilish va korreksiyalash .....	97
<a href="#">Sattorova Shirinoy San'atovna</a>	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kognitiv kompetentligini rivojlantirishda integrativ yondashuv ..	100
<a href="#">Buvrayev Akram Rustam o'g'li</a>	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy nutqiga qo'yiladigan talablar .....	104
<a href="#">Xolmuminova Dilfuza Xolmamatovna</a>	
O'qituvchining kasbiy faoliyatida ma'naviy-axloqiy fazilatlarining ahamiyati .....	107
<a href="#">Jumanazarova Dilnoza Umurzaqovna</a>	



Hadislar yordamida boshlang'ich sinf o'quvchilarida ma'naviy-axloqiy sifatlarni shakllantirish .....	111
<i>Akaboyeva Malika Raxmatovna</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarini mustaqil fikrlashga o'rgatish texnologiyasi .....	114
<i>Beshimova Muazzam Bahodirovna, To'lanboyeva Farangis Ibrohimjon qizi</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilariga ona tili fanini o'qitishda kreativlik qobiliyatini rivojlantirishning pedagogik-psixologik shart-sharoitlari .....	117
<i>Xoliyeva Sevara Rustam qizi</i>	
Bo'lajak tarbiyachilarning maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirishda multimedia texnologiyalaridan foydalanish kompetensiyasini tarkib toptirish .....	122
<i>Narmatova Fotima Dilshod qizi</i>	
Organizing Physics Lessons in General Education Schools Based on Gamification Elements .....	127
<i>Y. A. Mamatokhunov, U. S. Ismoilov, M. A. Muxtorjonova</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda mantiqiy tafakkurni rivojlantirishda didaktik o'yinlarning samaradorligi....	129
<i>Meyliyeva Sevinch Bozor qizi</i>	
Anoreksiyasi va bulimiyaning psixologik determinantlari hamda klinik jihatlari .....	132
<i>Askarova Nargiza Abdivaliyevna, To'raqulova Sevinch Sattorjon qizi</i>	
Koxlear implantli bolalar fonematik eshituvini shakllantirish asosida tovush talaffuzini shakllantirish .....	136
<i>Bozorov Otabek Yo'lchi o'g'li, Yakubova Asalxon Ulug'bek qizi</i>	
Qisqa masofaga yuguruvchi yosh sportchilarning kuch va tezlik-kuch ko'rsatkichlarini rivojlantirishda yillik rejalashtirish samaradorligi .....	139
<i>Eshpulatov Jamshid Nuraliyevich</i>	
Разработка модуля автопрокторинга для платформ дистанционного обучения на основе компьютерного зрения и анализа активности пользователя .....	144
<i>Дустқобилов Акмал Бобомуродович</i>	
Определение нарушений академической честности на онлайн-экзаменах на основе компьютерного зрения: алгоритм и эффективность модуля камерaproctor .....	149
<i>Дустқобилов Акмал Бобомуродович, Маматов Исломбек Ильесович</i>	
Zamonaviy ta'limda sun'iy intellekt texnologiyalari: imkoniyatlar, muammolar va istiqbollar .....	154
<i>Delov To'liqin Erkinovich, Gulmirzayeva Zulayho Ko'klanboy qizi</i>	
Ijtimoiy tarmoqlarning talaba yoshlar psixologiyasiga ta'siri .....	160
<i>Saidakbarova Nigora Abduraxim qizi</i>	
Talabalarni ijtimoiy-pedagogik faoliyatga tayyorlashning besh blokli pedagogik modeli .....	165
<i>Amonov Mirjon Namozovich</i>	
O'smirlarning raqamli texnologiyalarga qaramligi va uning psixologik salomatlikdagi o'rni .....	170
<i>Nurmatov Nurhayot Nurziyot o'g'li, Normamatova Aziza Ibroxim qizi</i>	
Qizlarda erta nikohning psixologik omillari va sabablari .....	174
<i>Sodiqova Gulbarno Odiljon qizi</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida o'quv motivlarini shakllantirishning pedagogik imkoniyatlari .....	178
<i>Jumayeva Guzal Xayriddin qizi</i>	
Maktabgacha va kichik maktab yoshidagi bolalarda barmoqlar harakati mashqlari asosida kichik motorika va harakat koordinatsiyasini rivojlantirish .....	183
<i>Mirzakarimov Yuldashboy Abdinabiyevich</i>	
Globalashuv sharoitida yoshlar tashkilotlari orqali milliy o'zlikni anglashni shakllantirishning pedagogik strategiyalari .....	187
<i>Axralova Marg'uba Akmalxanovna</i>	
Tarbiya fani asosida o'quvchilarda huquqiy kompetentlikni rivojlantirish imkoniyatlari .....	191
<i>Jumanova Xafiza Xoliqulovna</i>	
Zamonaviy ilmiy-texnika taraqqiyoti sharoitida texnologik ta'lim mazmunini STEM yondashuvi asosida integratsiyalash va talabalarning texnik fikrlash kompetensiyasini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish .....	196
<i>Imanov Baxtiyor Berdiyevich, Qulmamatova Xurshida Abduxamidovna, Barataliyeva Nasiba Maxmadaminovna</i>	
Ijodiy kompetensiyalarni shakllantirishga yo'naltirilgan o'quv jarayonining mazmuniy ta'minoti .....	202
<i>Kubayeva Mavluda Baxtiyor qizi</i>	

MUNDARIJA	СОДЕРЖАНИЕ	CONTENTS	The Influence of a Competency-Based Approach on Educational Quality in Physics Instruction ..... 205 A. Xakimov, Yorqinjon Abduraimjanovich Mamatokhunov, M. A. Ne'matova
			Umumta'lim maktablarida o'quvchilarning ekologik savodxonligini shakllantirishning amaliy holati ..... 208 Majitov Turg'unali Anvar o'g'li
			Maktabgacha ta'lim tarbiyalanuvchilariga ingliz tilini o'rgatishning pedagogik va psixologiyistik xususiyatlari ..... 214 Ismoilova Muattar Ilyosovna
			Sharq mutafakkirlarining yoshlarni mehnat va kasb-hunarga o'rgatish bo'yicha qarashlari ..... 219 Alqarov Qodir Xoimatovich, Irmatov Pirmuhammad Normat o'g'li
			Metallar mavzusini interfaol metodlar asosida o'qitish orqali o'quvchilar kreativligini oshirish ..... 222 Murodova Sayyora Qanoatovna
			Moliyaviy terminlarni tarjima qilishning metodologik muammolari ..... 226 Norboyeva Dilafuz Djumaqulovna, Suvonov Ozodbek Jamshid o'g'li
			Oliy ta'lim muassasalarida yakuniy nazorat jarayonlarini sun'iy intellekt texnologiyalari asosida tashkil etishning afzalliklari ..... 230 Abdunabiyeva Kamola Mansurovna
			Pedagogik ta'limda AI-tutor texnologiyalaridan foydalanish: o'zaro ta'sir mexanizmi va samaradorlik tahlili ..... 236 Abdunabiyeva Maftunaxon Solijon qizi
			Talabalarda prokrastinatsiyani kamaytirishning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari ..... 240 Kozimov Sayfullah Maxammadjon o'g'li
			Kompetensiyaviy yondashuv asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'quv-bilish faoliyatini rivojlantirish ..... 245 Raximov Zokir Toshmirovich
			Yosh voleybolchilarning umumiy va maxsus jismoniy tayyorgarliklarini oshirishning pedagogik asoslari ..... 249 Temirov Shoirbek Raimjonovich
			Oliy ta'lim muassasalarida boshqaruv jarayonlari mexanizmlarini takomillashtirish ..... 253 Kimsanova Rahnamo Solijonovna
			Milliy kurash vositasida yoshlarning irodaviy sifatlarini rivojlantirish ..... 257 Muratov Muzaffar Shermamatovich
			Xavotirlanish muammosining psixologik-pedagogik adabiyotlarda o'rganilganligi va o'smirlik davrining psixologik xususiyatlari ..... 261 Mutalibjonov Nurillo Iroiljon o'g'li
			Bo'lajak pedagoglarda kreativ tafakkurni rivojlantirishning innovatsion va reflektiv asoslari ..... 264 Oblayeva Lobar Erdonovna
			STEM Education Technology: Physics Teaching Methodology and Future Innovations ..... 268 Yorqinjon Abduraimjanovich Mamatokhunov, Odinakhon Sotvoldiyeva Abdumannob qizi
			Mustaqil ta'limni tashkil etishning nazariy asoslari ..... 272 Qurbonova Buzaynab Nurmuxammadiyevna
			Maktabgacha tarbiya yoshda bolalar kognitiv sohasining tadqiq qilinishi ..... 276 Raxmonova Shaxrizoda Laziz qizi
			Modernization of Physics Teaching Methodology Based on Stream Integration in Vocational Schools ..... 279 S. Z. Zaynobiddinov, Yorqinjon Abduraimjanovich Mamatokhunov, Z. M. Orifjonova
			Cultural Competence as a Core Component of Foreign Language Teaching: Theoretical Foundations and Pedagogical Integration ..... 282 Shahlo Obidova
			Pedagogika oliy ta'lim muassasalarida talabalarning akmeologik madaniyatini rivojlantirishda ART-pedagogik texnologiyalardan foydalanish ..... 286 Shodmonova Shoira Saidovna, Sharifova Dildora Shavkiddin qizi
			Talabalarning to'garak mashg'ulotlari orqali ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish yo'llari ..... 290 Turakulova Feruza Mamadoli qizi



Boshlang'ich sinf o'quvchilariga ona tili fanini o'qitishda kreativlik qobiliyatini rivojlantirishning pedagogik-psixologik shart-sharoitlari .....	294
<i>Xoliyeva Sevara Rustam qizi</i>	
Texnologiya darslarida raqamli texnologiyalar vositasida o'quvchilarning tadbirkorlik ko'nikmalarini shakllantirish metodikasi.....	298
<i>Xudoyberdiyeva Nilufar Raximqulovna</i>	
Umumta'lim maktablari musiqa darslarida media-kontentlardan foydalanib o'quvchilarda estetik didni shakllantirish.....	302
<i>Xudoyqulov Asilbek Aziz o'g'li</i>	
Педагогические стратегии профилактики раннего профессионального выгорания у студентов-медиков (в условиях высокой информационной нагрузки) .....	305
<i>Асророва Мафтунабегим Махаммадризо кизи</i>	
Формирование самоотношения у подростков, переживших насилие .....	308
<i>Кушакова Наргиза Исламбаевна, Азаркова Миланика Дмитриевна</i>	
Изучение развития эпистемических знаний у учащихся 5-го класса в педагогико-психологической литературе.....	311
<i>Нехочина Лола Шахобиддиновна</i>	
Когнитивные уровни читательской деятельности в заданиях PIRLS: типология, процессы понимания и система оценивания.....	314
<i>Нуруллаева Шахло Уктамовна, Александра Валерьевна Шаркова</i>	



# OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA BOSHQARUV JARAYONLARI MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH

Kimsanova Rahnamo Solijonovna

Namangan davlat universiteti Ta'limda menejment doktranti

**Annotatsiya:** Oliy ta'lim muassasalarini (OTM) samarali boshqarish akademik mukammallikni ta'minlash, institutsional barqarorlikka erishish hamda inson kapitalini rivojlantirishda tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ushbu maqolada ma'muriy va akademik boshqaruv jarayonlarini optimallashtirish strategiyalari tahlil qilinib, zamonaviy raqamli texnologiyalarni joriy etish, ma'lumotlarga asoslangan qaror qabul qilish hamda tashkiliy tuzilmani qayta shakllantirish masalalariga alohida e'tibor qaratilgan. Shuningdek, operatsion samaradorlikni oshirish, innovatsiyalarni rag'batlantirish va boshqaruvdagi shaffoflikni ta'minlash masalalari yoritilgan. Tadqiqot tanlab olingan universitetlar misolida olib borilgan tahlillarga asoslanib, boshqaruv jarayonlarini takomillashtirish ta'lim natijalari hamda muassasalarning raqobatbardoshligiga ijobiy ta'sir ko'rsatishini namoyon etadi.

**Kalit so'zlar:** oliy ta'lim, institutsional boshqaruv, jarayonlarni optimallashtirish, raqamli transformatsiya, boshqaruv tizimi, akademik ma'muriyat, samaradorlik.

**Abstract:** Effective management of higher education institutions (HEIs) is becoming increasingly important in ensuring academic excellence, achieving institutional sustainability, and developing human capital. This article analyzes strategies for optimizing administrative and academic management processes, with particular emphasis on the implementation of modern digital technologies, data-driven decision-making, and the restructuring of organizational frameworks. Furthermore, the study highlights issues related to improving operational efficiency, fostering innovation, and ensuring transparency in governance. Based on analyses conducted using selected universities as case studies, the research demonstrates that improving management processes positively influences educational outcomes and enhances the competitiveness of institutions.

**Key words:** higher education, institutional governance, process optimization, digital transformation, management system, academic administration, efficiency.

**Аннотация:** Эффективное управление высшими учебными заведениями (ВУЗами) приобретает всё большее значение для обеспечения академического совершенства, достижения институциональной устойчивости и развития человеческого капитала. В данной статье анализируются стратегии оптимизации административных и академических процессов управления, при этом особое внимание уделяется внедрению современных цифровых технологий, принятию решений на основе данных и реорганизации организационной структуры. Также рассматриваются вопросы повышения операционной эффективности, стимулирования инноваций и обеспечения прозрачности в управлении. Исследование, основанное на анализе деятельности ряда выбранных университетов, показывает, что совершенствование управленческих процессов положительно влияет на результаты образования и повышает конкурентоспособность образовательных учреждений.

**Ключевые слова:** высшее образование, институциональное управление, оптимизация процессов, цифровая трансформация, система управления, академическое администрирование, эффективность.

## KIRISH

Global raqobatbardoshlik va ta'lim talablarining tez sur'atlarda o'zgarib borishi sharoitida oliy ta'lim muassasalari resurslar, akademik dasturlar hamda ma'muriy faoliyatni samarali boshqarishda jiddiy muammolarga duch kelmoqda. Akademik muhitning tobora murakkablashib borishi va hisobdorlik talablarining ortishi oliy ta'lim muassasalarida boshqaruv jarayonlarini optimallashtirishni muhim ustuvor vazifaga aylantirdi. Oliy ta'limdagi samarali boshqaruv nafaqat me'yoriy talablar va standartlarga muvofiqlikni ta'minlaydi, balki sifatni oshirish, innovatsiyalarni rivojlantirish hamda insoniy va intellektual kapitalni shakllantirish kabi strategik maqsadlarni qo'llab-quvvatlaydi.

Ushbu tadqiqot oliy ta'lim muassasalaridagi asosiy boshqaruv jarayonlarini tahlil qiladi hamda institutsional samaradorlikni sezilarli darajada oshirishi mumkin bo'lgan yo'nalishlarga e'tibor qaratadi. Xususan, ma'muriy boshqaruvda raqamli vositalardan foydalanish, dalillarga asoslangan qaror qabul qilish amaliyotlarini joriy etish hamda samaradorlik va moslashuvchanlikni oshirish maqsadida boshqaruv tuzilmalarini qayta tashkil etish masalalari ko'rib chiqiladi. Muvaffaqiyatli tajribalarni tahlil qilish va ilg'or amaliyotlarni aniqlash orqali ushbu maqola o'z muassasalarining boshqaruv tizimini mustahkamlashga intilayotgan siyosatchilar, administratorlar va akademik rahbarlar uchun amaliy tavsiyalar berishni maqsad qiladi.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

So'nggi yillarda oliy ta'lim muassasalarida (OTM) boshqaruv jarayonlarini takomillashtirish masalasi keng ko'lamda tadqiq etilmoqda. Bu holat akademik boshqaruv tizimida samaradorlik, shaffoflik va sifatga bo'lgan talablarning ortib borishi bilan bog'liqdir. Tadqiqotchilarning fikricha, OTMlarda boshqaruvni isloh qilish zamonaviy strategik yondashuvlar, raqamlashtirish jarayonlari hamda innovatsion boshqaruv usullarini o'z ichiga olishi zarur. Chunki aynan shu omillar zamonaviy oliy ta'lim tizimida yuzaga kelayotgan murakkab muammolarni samarali hal etishga xizmat qiladi.

Avvalo, ko'plab olimlar raqamli transformatsiya tashabbuslarini joriy etish institutsional boshqaruv samaradorligini oshirishning asosiy omili ekanligini ta'kidlaydilar. So'nggi ilmiy adabiyotlar tahliliga ko'ra, OTMlar axborot tizimlari, bulutli texnologiyalar, ta'limni boshqarish tizimlari (LMS) va raqamli boshqaruv platformalarini tobora kengroq integratsiya qilmoqda. Bunday o'zgarishlar ilgari qat'iy va murakkab bo'lgan ma'muriy jarayonlarni moslashuvchan hamda ma'lumotlarga asoslangan boshqaruv jarayonlariga aylantirmoqda. Natijada boshqaruvning tezkorligi oshadi, byurokratik to'siqlar kamayadi va real vaqt rejimida qaror qabul qilish imkoniyati kuchayadi <sup>[1]</sup>.

Shu bilan bir qatorda, mualliflar muvaffaqiyatli boshqaruv islohotlari faqat texnologik vositalar bilan emas, balki samarali rahbarlik va institutsional madaniyatdagi o'zgarishlar bilan ham chambarchas bog'liq ekanligini qayd etadilar. Xususan, akademik muhitda raqamli yetakchilik muhim omil sifatida e'tirof etiladi. Raqamli texnologiyalarni chuqur tushunadigan va islohotlarni qo'llab-quvvatlaydigan rahbariyatga ega bo'lgan muassasalar yangi tizim va vositalarni yanada samarali joriy etadi hamda ularga moslashish jarayonini muvaffaqiyatli tashkil qiladi <sup>[2]</sup>.

Milliy kontekstda, xususan, O'zbekistonda olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, strategik boshqaruv yondashuvlarini OTMlarga integratsiya qilish ularning raqobatbardoshligi va operatsion samaradorligini sezilarli darajada oshirishi mumkin. Strategik rejalashtirish, missiyaga yo'naltirilgan boshqaruv hamda resurslar ustidan mustaqillik modernizatsiyaning asosiy ustunlari sifatida ilgari surilmoqda <sup>[3]</sup>.

Biroq strategik boshqaruv tizimlari joriy etilgan taqdirda ham ayrim muammolar saqlanib qolmoqda. Jumladan, rahbarlik salohiyatining cheklanganligi, institutsional strategiyalarni ishlab chiqishdagi zaifliklar hamda global ilg'or tajribalarni to'liq joriy etmaslik islohotlar samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Ayrim tadqiqotchilar ta'kidlashicha, inson resurslari, infratuzilma va institutsional tayyorgarlik yetarli darajada bo'lmasa, islohotlar yuzaki xarakterda qolib ketishi mumkin <sup>[4]</sup>.

Bundan tashqari, so'nggi tadqiqotlar sifatni ta'minlash va samaradorlikni baholash tizimlarining ahamiyatini alohida ta'kidlamoqda. Samaradorlik ko'rsatkichlari, ekonometrik modellashtirish va ma'lumotlarga asoslangan baholash usullaridan foydalanish OTMlarga ta'lim natijalari, resurslarni taqsimlash va institutsional rivojlanishni monitoring qilish imkonini beradi. Bu esa, ayniqsa, OTMlar barqarorlik, hisobdorlik va uzluksiz rivojlanishga intilgan sharoitda muhim ahamiyat kasb etadi <sup>[5]</sup>.

Ilmiy adabiyotlarda yana bir muhim tendensiya sifatida OTM boshqaruvida kompleks va inson markazli modellarga ehtiyoj ortib borayotgani qayd etiladi. Bunday yondashuvlar faqat ma'muriy yoki moliyaviy ko'rsatkichlargagina emas, balki institutsional missiya, akademik halollik, manfaatdor tomonlarning ishtiroki hamda intellektual kapitalni uzoq muddatli rivojlantirishga ham e'tibor qaratadi. Bu esa universitetlarning ilmiy tadqiqot, ta'lim va madaniy missiyasini birlashtiruvchi an'anaviy ta'lim g'oyalari bilan uyg'unlashadi <sup>[6]</sup>.

Nihoyat, zamonaviy ilmiy adabiyotlarda raqamli nazorat va qaror qabul qilishni qo'llab-quvvatlovchi tizimlarni, ya'ni OTMlarga moslashtirilgan boshqaruv nazorati tizimlarini joriy etish ehtiyojlari va muammolari ham yoritilgan. Ushbu tizimlar an'anaviy biznes boshqaruvi modellariga qaraganda murakkabroq hisoblanadi, chunki universitetlar ta'lim, ilmiy tadqiqot, ijtimoiy mas'uliyat va uzoq muddatli rivojlanish maqsadlari o'rtasida muvozanatni saqlashi kerak bo'ladi. Shu sababli, bunday murakkablik korporativ boshqaruv tizimlarini oddiy ko'chirish emas, balki OTMlar uchun moslashtirilgan maxsus yondashuvlarni talab qiladi.

Oliy ta'lim muassasalarida (OTM) boshqaruv jarayonlarini takomillashtirish ko'p qirrali masala bo'lib, u nafaqat ma'muriy samaradorlikka, balki ta'lim natijalariga ham bevosita ta'sir ko'rsatadi. So'nggi tadqiqotlar va amaliy misollar shuni ko'rsatadiki, agar islohotlar puxta rejalashtirilsa va izchil amalga oshirilsa, universitetlar samaradorlik, shaffoflik va innovatsion salohiyat borasida sezilarli natijalarga erishishi mumkin.



## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Zamonaviy OTMlarda kuzatilayotgan eng muhim o'zgarishlardan biri ma'muriy faoliyatni soddalashtirish maqsadida raqamli texnologiyalarni joriy etishdir. Masalan, Toshkent davlat universitetida xodimlarni ishga qabul qilish, ish haqi hisoblash va faoliyatni baholash jarayonlarini avtomatlashtirish uchun elektron HRM tizimi joriy etildi. Bir yil ichida universitet ma'muriy jarayonlarni bajarish vaqtining 30 foizga qisqarganini qayd etdi. Bu esa xodimlarga akademik qo'llab-quvvatlash va talabalarga xizmat ko'rsatishga ko'proq e'tibor qaratish imkonini berdi. Xuddi shuningdek, Samarqand davlat universitetida talabalarni ro'yxatdan o'tkazish va fanlarni boshqarish bo'yicha onlayn platformalar joriy qilinib, qog'ozbozlik kamaydi hamda talabalar qoniqishi sezilarli darajada oshdi.

### Strategik boshqaruv va yetakchilik

Amaliy tadqiqotlar samarali boshqaruv islohotlari muhim ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatmoqda. O'zbekiston Milliy universitetida strategik rejalashtirish tizimi hamda professor-o'qituvchilar va boshqaruv xodimlarini samaradorlik asosida baholash tizimi joriy etilishi qaror qabul qilish va resurslarni taqsimlash sifatini yaxshiladi. Islohotlar amalga oshirilganidan ikki yil o'tib, universitet ilmiy tadqiqotlar sonining oshgani va xalqaro hamkorlikning kuchayganini qayd etdi. Shuningdek, loyiha boshqaruvi va strategik fikrlash bo'yicha maxsus treninglar kafedra mudirlarini murakkab akademik hamda ma'muriy vazifalarni boshqarishga tayyorlashda muhim omil bo'lib xizmat qildi.

### Islohotlarni amalga oshirishdagi muammolar

Biroq barcha islohotlar ham darhol muvaffaqiyat keltirmaydi. Ayrim kichik hududiy universitetlarda IT infratuzilmasining yetarli emasligi hamda xodimlarning raqamli savodxonligi pastligi elektron HRM va onlayn boshqaruv vositalarini joriy etishda muammolarni yuzaga keltirdi. Bunday holatlarda islohotlar dastlab ish hajmini oshirib, xodimlar orasida norozilikni keltirib chiqardi. Bu esa texnologik yangilanishlar albatta o'quv treninglari va bosqichma-bosqich joriy etish bilan birga olib borilishi kerakligini ko'rsatadi. Shuningdek, samaradorlik ko'rsatkichlari jazolovchi vosita sifatida qabul qilingan hollarda yangi boshqaruv amaliyotlariga qarshilik ham kuzatildi.

### Samaradorlik va ta'lim maqsadlari o'rtasidagi muvozanat

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, eng yaxshi natijalar ma'muriy modernizatsiya ta'lim maqsadlari bilan uyg'unlashtirilgan hollarda kuzatiladi. Masalan, Buxoro davlat universiteti professor-o'qituvchilarning ilmiy faoliyatiga ko'proq vaqt ajratish maqsadida ma'muriy jarayonlarni qayta tashkil etdi. Avtomatlashtirilgan jadval tuzish va raqamli hujjat yuritish tizimlari joriy etilgach, ilmiy maqolalar soni 25 foizga oshdi hamda fanlararo tadqiqot loyihalari ko'paydi. Shuningdek, Namangan davlat universiteti jarayonlarni raqamlashtirishni shaffof qaror qabul qilish tizimi bilan uyg'unlashtirdi. Bu tizim talabalar va xodimlarga rejalashtirish hamda resurslarni taqsimlashda ishtirok etish imkonini berib, hisobdorlik va institutsional madaniyatni mustahkamladi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Umuman olganda, OTMlarda muvaffaqiyatli boshqaruv islohoti korporativ modellarni oddiy nusxalash emas, balki kompleks yondashuvni talab qiladi.

Asosiy omillar quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- 1. Raqamlashtirish:** elektron HRM, onlayn ro'yxatdan o'tish va jarayonlarni avtomatlashtirish samaradorlikni oshiradi, biroq buning uchun infratuzilma va treninglar zarur.
- 2. Boshqaruv va yetakchilik:** strategik boshqaruv tizimlari va rahbarlik salohiyatini rivojlantirish qaror qabul qilish sifatini oshiradi.
- 3. Madaniy moslashuv:** islohotlar institutsional madaniyat, xodimlarning tayyorgarligi va mahalliy sharoitlarni hisobga olishi kerak.
- 4. Akademik yo'naltirilganlik:** ma'muriy samaradorlik ta'lim, ilmiy tadqiqot va innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlashi lozim.

Shunday qilib, texnologiyalar, strategik boshqaruv va yetakchilik salohiyatini rivojlantirishni birlashtirgan universitetlar barqaror rivojlanishga, yuqori akademik natijalarga hamda talabalar va xodimlar qoniqishining oshishiga erishmoqda. Ushbu misollar muvaffaqiyatli boshqaruv islohoti doimiy, muayyan sharoitga moslashuvchan hamda puxta rejalashtirish, monitoring va moslashuvchanlikni talab qiluvchi jarayon ekanligini ko'rsatadi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Oliy ta'lim muassasalarida boshqaruv jarayonlarini tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, ma'muriy samaradorlikni oshirish, boshqaruv tizimini takomillashtirish va rahbarlik salohiyatini rivojlantirish akademik mukammallikni ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Muvaffaqiyatli islohotlar raqamlashtirish, strategik rejalashtirish va yetakchilikni rivojlantirish jarayonlarini ta'lim maqsadlari bilan uyg'unlashtira olgan hollarda samarali natija beradi.

Tadqiqotlarda keltirilgan amaliy misollar shuni ko'rsatadiki, elektron HRM tizimlari, onlayn talabalar xizmatlari va avtomatlashtirilgan ma'muriy jarayonlar ish yuklamasini sezilarli darajada kamaytirib, mehnat unumdorligini oshiradi. Biroq bunday natijalarga erishish uchun xodimlarni tayyorlash va tizimlarni bosqichma-bosqich joriy etish muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, shaffof boshqaruv tizimlari va rahbarlikni rivojlantirish dasturlari qaror qabul qilish sifatini, resurslarni taqsimlash samaradorligini hamda professor-o'qituvchilar va talabalar faolligini oshiradi.

Shu bilan birga, tadqiqotlar ayrim muammolar mavjudligini ham ko'rsatadi. Infratuzilmaning yetarli emasligi, o'zgarishlarga qarshilik hamda xodimlarning tayyorgarlik darajasi pastligi islohotlarning muvaffaqiyatiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shu sababli, islohotlar mahalliy sharoit va institutsional madaniyatni hisobga olgan holda amalga oshirilishi, shuningdek, ta'lim va ilmiy tadqiqot ustuvor yo'nalishlarini cheklab qo'ymasdan, aksincha, ularni qo'llab-quvvatlashi lozim.

Umuman olganda, OTMlarda boshqaruv jarayonlarini takomillashtirish faqat texnik vazifa emas, balki samaradorlik, innovatsiya va akademik mukammallik o'rtasida muvozanatni ta'minlashga qaratilgan strategik jarayondir. Mazkur islohotlar puxta va o'ylangan tarzda amalga oshirilganda, ular institutsional faoliyatning barqaror rivojlanishiga, ilmiy tadqiqotlar samaradorligining oshishiga hamda talabalar va xodimlar qoniqishining ortishiga xizmat qiladi. Natijada esa oliy ta'lim tizimining umumiy rivojlanishiga munosib hissa qo'shiladi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Digital transformation in higher education: Challenges and opportunities // SpringerLink. - 2022. - URL: SpringerLink (murojaat qilingan sana: 18.05.2026).
2. Digital leadership and management reforms in universities // ScienceDirect. - 2025. - URL: ScienceDirect (murojaat qilingan sana: 18.05.2026).
3. Strategic management in higher education institutions in Uzbekistan // InLibrary. - 2023. - URL: InLibrary (murojaat qilingan sana: 18.05.2026).
4. Barriers to institutional management reform in higher education // AC Open. - 2024. - URL: AC Open (murojaat qilingan sana: 18.05.2026).
5. Quality assurance and performance measurement in higher education // GE Journal. - 2023. - URL: GE Journal (murojaat qilingan sana: 18.05.2026).
6. Human-centered management models for universities // International Journals. - 2023. - URL: International Journals (murojaat qilingan sana: 18.05.2026).
7. Decision-support and management control systems in higher education institutions // ArXiv. - 2022. - URL: ArXiv (murojaat qilingan sana: 18.05.2026).

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
  - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
  - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
  - 13.00.03 Maxsus pedagogika
  - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
  - 13.00.07 Ta'limda menejment
  - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
  - 07.00.00 Tarix fanlari
  - 19.00.00 Psixologiya fanlari
  - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
  - 02.00.00 Kimyo fanlari
  - 03.00.00 Biologiya fanlari
  - 09.00.00 Falsafa fanlari
  - 10.00.00 Filologiya fanlari
  - 11.00.00 Geografiya fanlari



# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

**Mas'ul muharrir:** Ramzidin Ashurov

**Ingliz tili muharriri:** Murod Xoliyorov

**Musahhih:** Alibek Zokirov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

---

**2026. №5(4)**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.  
**Litsenziya raqami: № 136361.**

**Manzirimiz:** Toshkent shahar, Yunusobod tumani  
19-mavze, 17-uy.